Majmuaviy madaniy meros mexanizmi

Mamlakat:	Hududiy
Loyiha raqami:	49640
Faoliyat sohasi:	Mulk va turizm
Xabarnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi	IESE (Dastlabki ekologik va ijtimoiy ekspertiza)
Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:	2018-yil, 27-fevral
Qaysi bosqichda ekanligi:	Rahbariyat tasdig‘idan o‘tgan
Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) chop etilgan sana:	2018-yil, 26-yanvar

Loyiha mazmuni

Mavjud madaniy meros resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qiymati 150 million yevroli madaniy meros mexanizmini (keyingi o‘rinlarda “Mexanizm”) yaratish.

Mazkur mexanizm O‘zbekiston, Ruminiya, Albaniya, Iordaniya va G‘arbiy Sohil hududlaridagi (“Tajriba hududlari”) loyihalar uchun xususiy sektor korxonalarini qarz asosida va aksiyadorlik tartibida moliyalashtirishni, shuningdek, hukumat organlari, munisipalitetlar, davlat yoki munisipal korxonalarga beriladigan qarz mablag‘larini o‘z ichiga oladi.

Madaniy meros hududiy va jamiyat rivojlanishining o‘ta muhim resursi hisoblanadi va YTTB faoliyat olib borayotgan ko‘plab mamlakatlarda bir qator muammolar (jumladan, yetarlicha moliyalashtirilmaslik, tajribaning yetishmasligi, foydalanish imkoniyatlari va aloqaning yetarli darajada emasligi, manfaatdor tomonlar o‘rtasida muvofiqlashtirish va o‘zaro aloqalarning risoladagidek emasligi) sababli bu resursdan foydalanilmay kelinmoqda. YTTB iqtisodiy o‘sish va bandlik, shuningdek, barqaror turizmni jadal rivojlantira oluvchi madaniy merosga yaxlit va majmuaviy yondashuvni qabul qilish uchun barcha imkoniyatlarga egadir.

Ushbu Mexanizm doirasida YTTB o‘zining tarixiy binolarni tiklash, ta’mirlash, infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha bosh rejani moliyalashtirish borasidagi tajribasiga tayanadi. Shuningdek, bu Mexanizm yaxlit yondashuvga erishish maqsadida xususiy va davlat sektori bilan ishlash va turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida siyosiy muzokaralarni olib borishdagi ijobiy ko‘nikmalarini ishga soladi.

.

Loyiha maqsadi

Mazkur mexanizmning asosiy maqsadi turizm va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantish uchun Tajriba hududlarida madaniy meros resurslaridan foydalanish yo‘li bilan hududiy rivojlantirishda sohalararo katalizator vazifasini bajarishdan iborat. Bunga investitsiyalar, shuningdek, mamlakat miqyosida madaniy merosni barqaror boshqarish va undan iqtisodiy foyda olishga yo‘naltirilgan harakatlar rejasini tayyorlash va amalga oshirishda siyosiy hamda institutsional ishtirok etish hamda barqaror turizm uchun tashabbus va modellarni ishlab chiqish yo‘li bilan erishiladi. Harakatlar rejasi doirasida ushbu Mexanizm xususiy sektor va jamoatchilikning ham ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘tish davri ta’siri

Mazkur Mexanizm o‘tish davri ta‘sirining quyidagi asosiy ikki sifatiga tayanadi: (1) “Raqobatbardosh”: turizm faoliyatining raqobatbardoshligi; va (2) “Samarali boshqaruv” (“Well Governed”[1]): madaniy meros obyektlarini boshqarishni takomillashtirish va ulardan iqtisodiy foyda olish orqali. Bu Mexanizm doirasidagi investitsiyalar imkoniyatlarni kengaytirish, ta’mirlash va qayta tuzish kabi yo‘llar bilan mahalliy korxonalarning individual raqobatbardoshligini, infratuzilmani va aholi yashash manzilgohlarini bevosita qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa, ko‘zda tutilgan hududlarda turizmning umumiy raqobatbardoshligini va jozibadorligini oshirishga katta yordam berishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, har bir mamlakat miqyosidagi dastur tegishli hukumat organlari va mahalliy manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik omilini ham o‘z ichiga oladi. Bu strategik chora-tadbirlarning asosiy maqsadi, madaniy meros obyektlari atrofida turizmni rivojlantirish borasidagi asosiy muammolarni aniqlash, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va yanada takomillashgan samarali yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishdan iborat. Ba’zi hollarda, madaniy meros va turizm bilan bog‘liq davlat miqyosidagi ustuvor strategiyalar va aniq ehtiyojlarga ko‘ra, qo‘shimcha o‘tish davri ta’siri sifatlari qo‘llanilishi mumkin.

Mijoz haqida

Ushbu Mexanizm doirasida xususiy korxonalar, hukumat organlari, mahalliy hokimiyatlar va davlat korxonalari qarz mablag‘larini olishlari mumkin. Suveren kreditlar bo‘yicha to‘lovni qaytarish mas’uliyati, odatda, Moliya vazirligi, mahalliy hokimiyatlar yoki kommunal shirkatiga yuklatiladi va qarz mablag‘larini to‘lash bo‘yicha kelishuvlarni talab qiladi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘

150,000,000.00 yevro

Loyihaning umumiy qiymati

150,000,000.00 yevro

[1] “Well Governed” (“Samarali boshqaruv”) – YTTBning o‘tish davriga oid konsepsiyasi. Havola: https://www.ebrd.com/transition/well-governed.html

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Mazkur Mexanizm Bankning 2014-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosati asosida tasniflanmasa-da, uning har bir sub-loyihasi individual yondashuv asosida va loyiha hamda mijozning turidan kelib chiqqan holda, alohida tarzda ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD[2]) bo‘ycha tasniflanadi. Sub-loyiha toifasiga ko‘ra, tegishli ESDD har bir loyihaning Bank loyiha talablariga muvofiq tarzda tuzilganligini tekshiradi.

ESDD alohida olingan sub-loyihalarning aniq ekologik va ijtimoiy muammolarini, shu bilan birga, tegishli yumshatuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko‘za tutadi. Potensial ekologik va ijtimoiy muammolar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: qonuniy me’yorlaga amal qilish, jamoatchilik uchun maslahatlar, hayot va yong‘in xavfsizligi, sub-loyiha obyektining ekologik ta’sirchanligi, ko‘chirish va barqaror iqtisodiy holatdan mahrum qilish, ishchi kuchi, gigiyena va mehnat muhofazasi. Madaniy merosni muhofaza qilishga, shuningdek, undan keng jamoatchilikning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tegishli manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali baholanadi. Ba’zi sub-loyihalarga ESDD amalga oshirishda ishtirok etuvchi maslahatchi va manfaatdor tomonlar ishtiroki talab etilishi mumkin.

Texnik ko‘mak

Bu Mexanizmning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va uning doirasida sub-loyihalarni imzolash quyidagilarni qo‘llab-quvvatlash uchun YTTB jalb qilayotgan grant mablag‘lariga bog‘liq bo‘ladi:

(i) tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda harakatlar rejasini ishlab chiqishda ko‘maklashish uchun ekspertiza davomida dastlabki baholash talab etiladi;

(ii) ilmiy sohadagi hamkorlar va maslahatchilar tomonidan beriladigan maslahat xizmatlari, salohiyatni oshirish va o‘quv kurslaridan (masalan, kichik va o‘rta biznes korxonalari, hunarmandlarga mo‘ljallangan, tajriba almashishga ko‘maklashish, jumladan, biznesni strategik rivojlantirish uchun) foydalanish;

(iii) jamoatchilik ishtiroki;

(iv) tanlama ekspertiza va monitoring.

Texnik ko‘mak ehtiyojlari va byudjetlar har bir sub-loyihaning ehtiyojlarini baholash orqali aniqlanadi.

Infratuzilma amaliyotlari bo‘yicha esa, texnik iqtisodiy asos, mahsulot va xizmatlar sotib olish, tender hujjatlarini ishlab chiqish, tenderni baholash, shartnomalar tuzish, monitoring va shu kabi faoliyatlarga yordam tberish uchun qoplanmaydigan texnik ko‘mak va texnik ko‘makka oid bo‘lmagan grantlarning oldindan va keyin imzolash ishlari talab qilinishi mumkin.

[2] Environmental and Social Due Diligence

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma’lumot

Biznes hamkorlik

Biznes hamkorligi yoki ta’minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Umumiy so‘rovlar

Xarid masalalaridan tashqari YTTB loyihalariga tegishli ma’lumotlar uchun: Tel: +44 20 7338 7168; Faks: +44 20 7338 7380

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Axborot siyosati

Axborot siyosati YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma’lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

Axborot siyosati matni

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi

Jismoniy shaxslar va tashkilotlarning YTTB moliyalashtirgan loyihalarning biror zarar yetkazgani bo‘yicha da’volarni yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan holatlarga oid shikoyatlarni xolisona ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratish maqsadida YTTB Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasini (PCM[3]) tashkil qilgan.

PCM tartibga soladigan qoidalar | Ruscha talqini

PCM bo‘yicha har qanday shikoylatlar YTTB mablag‘lari so‘nggi taqsimlangan paytdan boshlab 12 oy ichida berilishi zarur. Agar qachon shikoyat berilishi kerakligi haqida aniq to‘xtamga kelmagan bo‘lsangiz, yordam uchun shikoyatlar bilan ishlashga ma’sul mutaxasisga (pcm@ebrd.com) yoki tegishli YTTB vakolatxonasiga murojaat qilishingiz mumkin.

[3] Project Complaint Mechanism